

№	MUNDARIJA	Page
1.	<i>YANGI O'ZBEKISTON IQTISODIYOTI SHAROITIDA AHOLINI IJTIMOIY HIMoyalashning Moliyaviy Zarurligi va Ahamiyatini Ametova Fotimajon Rozmatovna</i>	3
2.	<i>PRIMENENIE MCFO 17 V STRAHOVAY SISTEME UZBEKİSTANA: PERСПЕКТИVY VNEDRENIЯ I POTEНCIALNыE PROBLEMY. ANALIZ REZERBOV I ZAKONODATEЛЬNыX BAPЬEROV Bаратова Динора Алишеровна</i>	6
3.	<i>SUG'URTA POLISINI TANLASHDAGI MUAMMO VA AFZALLIKLAR Yo'ldoshova Aziza Muzaffar qizi</i>	10
4.	<i>O'ZBEKİSTONDA "YASHIL SUG'URTA" MAHSULOTLARINI JORIY ETISH MASALALARI Xasanov Farrux Ravshanovich</i>	13
5.	<i>SUG'URTA TASHKILOTLARINING INVESTITSIYA FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH Umarova Gulnora Akromovna</i>	16
6.	<i>O'ZBEKİSTONDA AVTOMOBIL TRANSPORT SUG'URTASINI TAKOMILLASHTIRISH Rustamov Sherzod Raxmataliyevich</i>	18
7.	<i>O'ZBEKİSTONDA AVTOTRANSPORT SUG'URTASINI RIVOJLANTIRISHDA XORIJ TAJRIBASINING O'RNI Yakubova Nargiz Tursunbayevna, Rustamov Sherzod Raxmataliyevich</i>	20
8.	<i>O'ZBEKİSTONDA SUG'URTA TIZIMI VA UNDAGI XAVFLAR Mirzamahmudova Madina Odiljon qizi, Akbaraliyeva Diyora</i>	22
9.	<i>PERСПЕКТИVY I BAPЬERY RAZVITIЯ ISLAMSKOGO STRAHOVANIЯ (TAKAFUL) V UZBEKİSTANE Myradova Dilgora Abdusaliyevna</i>	26
10.	<i>YASHIL SUG'URTA TURLARINI RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI: ILMİY-NAZARIY VA AMALIY YONDASHUV Erkaboev Yorbek Boirbekovich</i>	31
11.	<i>MILLIY SUG'URTA BOZORIDA INFORMATSION RISKLARNI SUG'URTALASHNI TAKOMILLASHTIRISH Xolbaev Azamat Yuldashevich</i>	34
12.	<i>PREIMUЩESTVA STRAHOVANIE I EGO ROL' V EKONOMIKE Умарова Хуршида Олимжоновна</i>	38
13.	<i>OLIY TA'LIM MUASSASALARINI MOLIYALASHTIRISH MANBALARINI DIVERSIFIKATSİYALASH: HOMİYLIK MABLAG'LAG'LARIDAN FOYDALANISH Dildora Bohodirovna Abdusattarovna</i>	42
14.	<i>SUVEREN KREDIT REYTING AGENTLIKLARINING BAHOLASH METODOLOGIYASIDAGI KAMCHILIKLARI TAHЛИI Tog'auniyazov Shohzodbek Ural o'g'li</i>	45
15.	<i>ZELЁNIE OBLIGACII I KREDITY: NOVYYI VEKTOR USTOЙЧIVOGO PОСTA UZBEKİSTANA Гульмухамедова Дилбар Бахтиер кизи, Каримов Комилжон Хамидович</i>	48
16.	<i>ZELENAЯ EКОНОМИКА UZBEKİSTANA: ПУТЬ K USTOЙЧIVOMU RAZVITIЮ CTRANI Гульмухамедова Дилбар Бахтиер кизи</i>	51

## “O'ZBEKISTON SUG'URTA BOZORI” JURNALI TAHRIR KENGASHI A'ZOLARI

1. Teshabayev To'lqin Zakirovich (Kengash raisi, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor).
2. Maqsudov Davron Sanjarxo'jayevich (Kengash raisi o'rinnbosari, Istiqbolli loyihalar milliy agentligi direktori o'rinnbosari).
3. Azimov Rustam Sadikovich ("O'zbekinvest" eksport-import sug'urta kompaniyasi" AJ bosh direktori, iqtisodiyot fanlari doktori).
4. Mehmonov Sultonali Umaraliyevich (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor).
5. Abdurahmonova Gulnora Qalandarovna (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor).
6. Sindarov Sherzod Egamberdiyevich (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor).
7. Zakirov Latif Xamidullayevich (Moliya vazirligi huzuridagi TKFJMS qoshidagi To'lovlarni kafolatlash jamg'armasi direktori).
8. Xalilov Oybek Nasirovich (O'zbekiston sug'urta bozori professional ishtirokchilari uyushmasi kengashi raisi).
9. Qurbonov Xayrulla Abdurasulovich (TDIU Xalqaro va milliy reytinglar bilan ishslash markazi rahbari, dots.).
10. Quldashev Qamariddin Mansurovich (TDIU "Sug'urta ishi" kafedrasni professori, DSc, bosh muharrir).
11. Zaynalov Jahongir Rasulovich (Samarqand iqtisodiyot va servis instituti "Moliya" kafedrasni mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, prof.)
12. Shennayev Xojayor Musurmanovich (TDIU "Sug'urta ishi" kafedrasni mudiri, DSc, prof.).
13. Boyev Xabibullo Ismoilovich (TDIU "Sug'urta ishi" kafedrasni professori, iqtisodiyot fanlari doktori).
14. Ortiqov Furqat A'zamjonovich ("Kafil Sug'urta" AK sug'urta kompaniyasi direktorlar kengashi raisi).
15. Nurullayev Abdulaziz Sirojiddinovich (O'zbekiston madaniyat va san'at instituti professori, i.f.n. dots.).
16. Merident Randles (FSA, MAAA. Principal & Consulting Actuary. Katta maslahatchi, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative).
17. Ong Xie (FIA, FSAS. Dastur menejeri, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative. Olmosh: She/Her).
18. Hasanov Xayrulla Nasrullahayevich (TDIU Besh tashabbus markazi rahbari, i.f.b.f.d.).
19. Mamadiyarov Zokir Toshtemirovich (TDIU "Moliya bozori va sug'urta" kafedrasni mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori).
20. Mutalova Dilorom Maxamadjanovna (TDIU "Soliqlar va soliqqa tortish" kafedrasni professori, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori).
21. Imomov Hamdilla Hamdamovich (TDIU "Korporativ moliya va qimmatli qog'ozlar" kafedrasni professori v.b., falsafa fanlari doktori).
22. Kenjayev Ilxom G'iyozovich (TDIU Magistratura bo'yicha dekan o'rinnbosari, i.f.b.f.d., dots.).
23. Yadgarov Akram Akbarovich (TDIU "Yashil iqtisodiyot" kafedrasni professori v.b., iqtisodiyot fanlari doktori).
24. Yuldashev Obiddin Toshmurzayevich (TDIU "Sug'urta" kafedrasni professori v.b. i.f.d.).
25. Samadov Asqarjon Nishonovich (TDIU "Marketing" kafedrasni dotsenti, universitet Kengashi kotibi, fanlar nomzodi).
26. Baratova Dinara Alisherovna (TDIU "Sug'urta" kafedrasni dotsenti, t.f.n. kotib).
27. Qarshiyev Daniyar Eshpo'latovich (TDIU "Sug'urta" kafedrasni dotsenti, i.f.n., bosh muharrir).
28. Nomozova Qumri Isoyevna (Bank-moliya akademiyasi dotsenti, PhD).
29. Hamdamov Shoh-Jahon Raxmat o'g'li (TDIU "Korporativ moliya va qimmatli qog'ozlar" kafedrasni dotsenti, i.f.n.).
30. Maxmudov Samariddin Baxriddinovich (TDIU "Korporativ moliya va qimmatli qog'ozlar" kafedrasni dotsenti, i.f.n.).



## YASHIL SUG'URTA TURLARINI RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI: ILMIY-NAZARIY VA AMALIY YONDASHUV

**Erkaboev Yorbek Boirbekovich**

katta o'qituvchi, TDIU

e-mail: yorbekerkaibov@gmail.com

DOI: [https://doi.org/10.55439/INS/vol2\\_iss3/296](https://doi.org/10.55439/INS/vol2_iss3/296)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada yashil iqtisodiyot doirasida yashil sug'urta turlarining ilmiy-nazariy asoslari, xalqaro amaliyot, hamda O'zbekiston sharoitida ushbu xizmat turlarini joriy etish va rivojlanirish imkoniyatlari tahlil qilingan. Shuningdek, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish bo'yicha amaliy takliflar ilgari surilgan.

**Kalit so'zlar:** yashil iqtisodiyot, yashil sug'urta, ekologik xavf, sug'urta bozori, barqaror rivojlanish

**Abstract:** The article analyzes the scientific and theoretical foundations of types of green insurance within the green economy, international practice, as well as the possibilities of implementing and developing these types of services in the context of Uzbekistan. It also puts forward existing problems and practical proposals for their elimination.

**Keywords:** green economy, green insurance, environmental risk, insurance market, sustainable development.

**Абстрактный:** В статье анализируются научно-теоретические основы видов зеленого страхования в рамках зеленой экономики, международная практика, а также возможности внедрения и развития данных видов услуг в условиях Узбекистана. Также выдвигаются существующие проблемы и практические предложения по их устранению.

**Ключевые слова:** зеленая экономика, зеленое страхование, экологический риск, страховой рынок, устойчивое развитие

### Kirish (Введение /Introduction).

O'zbekistonda barqaror rivojlanish va ekologik xavfsizlikni ta'minlash maqsadida yashil iqtisodiyotga o'tish ustuvor yo'nalishlardan biriga aylandi. Bu jarayonda sug'urta sohasining roli tobora oshib bormoqda, ayniqsa, ekologik xatarlardan himoya qilish imkonini beradigan "yashil sug'urta" turlarining ahamiyati katta. Hozirgi zamон iqtisodiyotida barqaror rivojlanishning asosiy yo'nalishlaridan biri — bu ekologik xavfsizlikni ta'minlash va tabiiy resurslardan oqilonla foydalanish hisoblanadi. Mazkur jarayonda sug'urta sohasining, xususan, yashil sug'urta turlarining ahamiyati oshib bormoqda. Yashil sug'urta nafaqat ekologik xavflarni moliyaviy bartaraf etish vositasini, balki mamlakat iqtisodiyotini barqarorlashtirishda muhim mexanizm hisoblanadi.

2024 yil 1 martda PQ-108-son "Sug'urta xizmatlari bozorini yanada rivojlanirishning kompleks chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori qabul qilinib, unda "yashil sug'urta"ga oid band ilk marta rasmiy davlat hujjatlarida ilmiy asoslangan siyosat ob'ekti sifatida aks etdi. Shuningdek, «yashil sug'urta» (Green insurance) mahsulotlarini joriy etish yuzasidan topshiriqlar berilgan[1].

Qarorda "yashil sug'urta" atamasi faqat amaliy vosita sifatida emas, iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim institut sifatida tilga olingan. Bu esa ushbu sug'urta turlarini ilmiy tadqiqotlar ob'ekti sifatida qarash imkonini beradi.

Avvalom bor yashil sug'urta tushunchasi va uning turlari haqida to'xtalib o'tishimiz lozim. Yashil sug'urta — bu ekologik xatarlar, tabiiy ofatlar, ifloslanish va qayta tiklanadigan energiya loyihalarini qo'llab-quvvatlovchi sug'urta xizmatlarini o'z ichiga oladi. Ushbu sug'urta turlari mamlakatdagi ekotizimni himoya qilishga, bizneslarni ekologik mas'uliyatga undashga xizmat qiladi.

Yashil sug'urtaning asosiy turlari quyidagilar:

Tabiiy ofatlar sug'urtasi — bu sel, qurg'oqchilik, yong'in, er silkinishi, shamol, tuproq qimirlashi kabi tabiiy yoki texnogen omillar natijasida kelib chiqadigan iqtisodiy zararlarni bartaraf etishga qaratilgan sug'urta turidir. Bu sug'urta turi tabiiy xavf-xatarga ko'p duch keluvchi

hududlarda yashovchi aholi va tadbirkorlar uchun moliyaviy barqarorlikni ta'minlash vositasidir.

O'zbekistonda tabiiy ofatlarga moyil hududlar mavjud bo'lib, qishloq xo'jaligi erlarda qurg'oqchilik xavfi yuqori, tog'li va tog' etaklarida sel va er ko'chishi xavfi hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi va Surxondaryo viloyatlarida yomg'irsizlik va issiqlik bosimlari shuningdek qurilish va shaharsozlikda yong'in va shamol xatarlarini hisobga oladigan bo'lsak, yashil sug'urtaga ehtiyoj mavjudligini tushunib etamiz.

Qayta tiklanadigan energiya (QTE) loyihalari — quyosh, shamol, gidroenergiya, biomassa va geotermal manbalardan foydalangan holda elektr yoki issiqlik energiyasini ishlab chiqarish loyihalaridir. Ushbu loyihalarda kapital juda katta, ammo tavakkalchilik ham yuqori. Ob-havo omillariga kuchli bog'liqlik (masalan, quyosh panellari yomg'irli kunlarda samarasiz), texnika buzilishi, qurilish kechikishi yoki litsenziya masalalari hamda huquqiy va ekologik tavakkalchiliklar mayjudligi bois, ushbu loyihalarni sug'urta qilish investorlar, banklar va davlat uchun kafolat vositasini hisoblanadi.

Qayta tiklanadigan energiya loyihalarini sug'urta qilish O'zbekistonning yashil iqtisodiyotiga o'tishda strategik mexanizm hisoblanadi. Bu sug'urta turi orqali investitsion xavflar kamayishi, loyihalar samaradorligi oshishi va mamlakatning ekologik barqarorligi ta'minlanishi mumkin.

Ekologik javobgarlik sug'urtasi — yuridik yoki jismoniy shaxslar faoliyati natijasida atrof muhitga etkazilgan zarar uchun ularning javobgarligini sug'urta qilish turidir. Ekologik javobgarlik sug'urtasi (Environmental Liability Insurance) — "yashil sug'urta"ning xalqaro amaliyotda keng qo'llaniladigan va O'zbekiston uchun juda dolzarb bo'lgan turlaridan biri hisoblanadi.

Ushbu sug'urta turida korxonalar va tashkilotlarning ekologik xatarlarga qarshi moliyaviy himoyasini ta'minlaydi, atrof-muhitni ifloslanirish holatlari dagi to'lov va kompensatsiya xarajatlarini sug'urtalaydi hamda Davlat va jamoatchilik oldidagi ijtimoiy mas'uliyatni kuchaytiradi.

Ekologik javobgarlik sug'urtasi — atrof muhitni muhofaza qilish bilan bir qatorda, ijtimoiy mas'uliyatlari biznes muhitini shakllantirishga xizmat qiladi. O'zbekistonda ushbu sug'urta turining rivojlanishi davlat, tadbirkor va jamiyat manfaatlarini himoya qilishning muhim mexanizmi sifatida baholanadi.[3]

Eko-infratuzilmalarini moliyaviy himoya qilish — "yashil sug'urta" konsepsiyasining o'zagida turadi. Bu yo'naliшti atrof-muhitni muhofaza qilishga qaratilgan ob'ektlar, loyihalar va infratuzilmalarini tavakkalchiliklardan himoya qilishga qaratilgan. Eko-infratuzilma — bu atrof-muhitni muhofaza qilish va barqaror rivojlanish maqsadida quriladigan va ekspluatatsiya qilinadigan infratuzilma ob'ektlaridir. Ular qatoriga, kanalizatsiya va tozalash inshootlari (biologik va kimyoviy), shahar bog'lari, yashil hududlar, eko-transport tizimlari (elektr avtobuslar, velosiped yo'laklari) hamda energiya samarador binolar shu bilan birgalikda ekologik monitoring markazlari kiradi.

Eko-infratuzilmalarini moliyaviy himoya qilish — nafaqat investitsiyani asrash, balki ekologik barqarorlik, aholi salomatligi va iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash uchun muhim mexanizm hisoblanadi. Sug'urta tizimi bu sohada ishonchli kafolat sifatida xizmat qilishi mumkin.

Agrosug'urta (ayniqsa, iqlim xavflariga qarshi) — "yashil sug'urta"ning agrar sektori uchun eng muhim, eng zarur yo'naliшhlardan biridir. Bu sug'urta turi orqali qishloq xo'jaligi xatarlarini kamaytrish, dehqon va fermerlar daromadini kafolatlash mumkin. Bu sug'urta turida hosilni yo'qotish (sel, qurg'oqchilik, yomg'ir, shamol), ekinlar yoki hayvonlarga kelgan zarar hamda tabiiy ofatlar va ob-havo ta'siri natijasidagi daromad kamayishi xavflarini qamrab oladi.

#### **Adabiyotlar tahlili (Обзор литературы / Literature review).**

Yashil sug'urta turlarini rivojlanirish borasida ilmiy va amaliy tadqiqotlar soni oxirgi yillarda o'sib bormoqda. Yashil sug'urta va ekologik xavflarni sug'urta qilish sohasida tadqiqot olib borgan ko'plab xalqaro va mahalliy olimlar mavjud.

Jumladan Natalya Vladimirovna Pershina sug'urta bozori va ekologik xavflarni baholash sohasida "Ekologicheskoe straxovanie: teoriya i praktika" (monografiya)[7] asari mavjud bo'lib ushbu asarda u Rossiya da ekologik sug'urta mexanizmlarini joriy etishning huquqiy, iqtisodiy va amaliy jihatlarini tahlil qilingan. Shu bilan bir qatorda Olga Nikolaevna Smirnova ekologiya va moliani bog'lovchi sug'urta vositalarini tadqiq qilgan. O'zbekistonlik iqtisodchi olimlar Sobirov Baxtiyor Baxromovich "Yashil iqtisodiyotni rivojlanirishda ekologik sug'urteaning o'rni", "Sug'urta bozorida ekologik tavakkalchiliklarni baholash va kamaytrish usullari"[9] kabi maqolalarida ekologik xavflarni baholash va ularni sug'urta mexanizmlariga to'xtalib o'tgan.

Yashil sug'urta va ekologik xavflarni sug'urta qilish masalalari, uning nazariy-amaliy jihatlari xorijlik olimlar Christian Gollier (Fransiya), "Pricing the Planet's Future" asarida ekologik tavakkalchilik, iqlim o'zgarishi, yashil iqtisodiyot va sug'urta sohalarida ilmiy jihatdan yondashuvlar asoslangan. Yashil sug'urta va ekologik xavflarni sug'urta qilish sohasida tadqiqot olib borgan ko'plab xalqaro va mahalliy olimlar mavjud. Shu bilan birgalikda mahalliy tadqiqotchilar A.R. Mamarahimov "Yashil iqtisodiyot va moliyaviy mexanizmlar"[10], Sh.E. Rahmatov "Barqaror iqtisodiy rivojlanish va sug'urta tizimidagi islohotlar" mavzusidagi maqolalarida yashil sug'urta va ekologik xavflarni sug'urta qilish imkoniyatlarini kengaytrish yuzasidan ustuvor yo'naliшhlar ilgari surilgan.

**Tadqiqot usullari (Методы исследования /Methodology).** Tadqiqotni bajarish jarayonida tizimli tahlil va yondashuv, mantiqiy va tarkibiy tahlil qilish, guruhlashtirish va umumlashtirish, ekspert baholash va proqnozlashtirish, o'zaro va qiyosiy taqqoslash usullaridan foydalanildi.

**Tahlil va natijalar (Анализ и результаты /Analysis and results).** Sug'urta bozorini yanada rivojlanirish, zamonaviy axborot texnologiyalarini keng joriy etish orqali sug'urta xizmatlarining ommabopligrini va sifatini oshirish, shuningdek, sohani tartibga solishni yanada takomillashtirish yuzasidan hukumat qarorlari amaliyotga joriy etilmoqda. Ushbu tadqiqot doirasida "yashil sug'urta" turlarining joriy etilishi, rivojlanish imkoniyatlari, mavjud to'siqlar va ularni bartaraf etish

yo'llari atroflichcha tahlil qilindi. Quyida asosiy tahlil yo'naliшhlari va ularning natijalari keltirilgan.

O'zbekiston sug'urta bozorida ekologik tavakkalchiliklar holati tahlil qilish davomida ekologik xatarlarga qarshi maxsus sug'urta turlari amalda mavjud emasligi yoki cheklangan darajada faoliyat yuritayotgani aniqlandi. Sug'urta kompaniyalarini asosan an'anaviy tavakkalchiliklarni (avtomobil, mulk, hayot va h.k.) sug'ortalashga ixtisoslashgan. Shu bilan birgalikda ekologik xavflarni baholash mexanizmi etarli darajada ishlab chiqilmagan, sug'urta kompaniyalarida ekologik xavf tahlili bo'yicha malaka va amaliyot etishmaydi.

Xalqaro sug'urta bozorida ekologik tavakkalchiliklar holati tahlil qilish davomida rivojlangan davlatlarda (Evropa, AQSh, Yaponiya) yashil sug'urta turlari faol joriy qilingan. Xususan: klimat-xavf sug'urta, karbon emissiyalari uchun sug'urta, energiya samaradorligini kafolatlovchi sug'urtalar mavjud va amaliy mexanizmlar bilan ta'minlangan. O'zbekistonda ushbu tajribalarini joriy etish uchun normativ-huquqiy baza va bozor infratuzilmasini takomillashtirish zarurligi aniqlandi.[4]

O'zbekistondagi 30 ga yaqin sug'urta kompaniyalarini ishtiroy etgan so'rovnomalariga ko'ra 78% kompaniyalar yashil sug'urta haqida ma'lumotga ega emas, 85% kompaniyalar hukumat tomonidan rag'batlaniruvchi mexanizmlar (soliq imtiyozlari, subsidiyalari) bo'lsa, ushbu turdagi sug'ortalarni joriy etishga tayyor ekanini bildirishgan.

Moliyaviy tahlil va ehtimoliy samaradorlik uyg'un ssenariy modellash usuli orqali, yashil sug'urta turlarini joriy etish iqtisodiy zararlar 12-18% ga kamayishiga, davlat xarajatlarini qisqarishiga, sug'urta sohasida yangi ish o'rinnari va mahsulotlar paydo bo'lishiga olib kelishini ko'rsatdi.

#### **Xulosa (Заключение/Conclusion).**

Yashil sug'urta turlarini rivojlanirish yo'naliшhlari haqidagi tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadi, global miqyosdagi ekologik tahididlari, iqlim o'zgarishi, texnogen avariylar va tabiiy ofatlarining ko'payishi sug'urta tizimining yangi mexanizmlar orqali qayta shakllanishini taqozo qilmoqda. Jumladan, yashil sug'urta nafaqat iqtisodiy xavflarni kamaytrishga, balki atrof-muhitni muhofaza qilish, barqaror rivojlanishni ta'minlash va ijtimoiy mas'uliyatni oshirishga xizmat qiluvchi muhim vosita sifatida namoyon bo'imloqda.

Maqoladagi tahlillar xalqaro amaliyotda yashil sug'urteaning bir necha shaklda amalga oshirilayotganini ko'rsatadi: ekologik mas'uliyat sug'urta, qayta tiklanadigan energiya loyihalari uchun sug'urta, agroekologik xavflarni qoplash sug'urta, qurilish va sanoatdagi "yashil sertifikatlangan" loyihalarini sug'urta qilish kabilar. Bu turlar zamonaviy sug'urta bozorining yangi segmentlarini shakllantirmoqda.

Tadqiqot mualliflari yashil sug'urta turlarini rivojlanirish uchun quyidagi asosiy yo'naliшhlarni taklif etadir:

1. Qonunchilik bazasini takomillashtirish – yashil moliya va ekologik tavakkalchilikni hisobga oluvchi alohida normativ hujjatlar joriy etilishi lozim.
2. Sug'urta mahsulotlarini diversifikasiyalash – bozor talabiga mos, sektorlar bo'yicha ixtisoslashtirilgan ekologik sug'urta turlarini yaratish.
3. Moliyaviy rag'bat va subsidiyalari – davlat tomonidan yashil sug'urta faoliyatini rag'batlanirish mexanizmi.
4. Aholi va biznesni xabardor qilish – sug'urta madaniyatini oshirish orqali ekologik mas'uliyatni mustahkamlash.

Shu bilan birga, maqolada qayd etilishicha, O'zbekiston kabi rivojlanayotgan mamlakatlarda yashil sug'urtani joriy etishda infratuzilma, ma'lumotlar taglik bazasi va kadrlar etishmasligi kabi bir qator to'siqlar mavjud. Shuning uchun mahalliy sharoitga mos, bosqichma-bosqich amalga oshiriladigan yondashuv talab etiladi.

Xulosa qilib aytganda, yashil sug'urta turlarini rivojlanirish nafaqat atrof-muhitni muhofaza qilishda, balki iqtisodiyotning barqaror va inkiyuziv rivojlanishida ham muhim ahamiyatga ega. Mazkur yo'naliшhdagi ilmiy tahlillar va amaliy takliflar milliy sug'urta siyosati va "yashil iqtisodiyot" strategiyasini shakllantirishda mustahkam ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

#### **Foydalilanigan adabiyotlar (Список использованной литературы / References):**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 1 martdag'i PQ-108-soni "Sug'urta xizmatlari bozorini yanada rivojlanirishning kompleks chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori. <https://lex.uz/docs/6824178>

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. (2022 yil, 3 dekabr). "Yashil energiyani rivojlantirish bo'yicha 2023–2025 yillarga mo'ljallangan dastur". №PQ-4365.
3. Hayitmatov, M. (2021). O'zbekistonda ekologik sug'urtani rivojlantirish masalalari. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar ilmiy elektron jurnali, №6.
4. Azimova, N.Sh. (2020). Sug'urta faoliyatida ekologik tavakkalchiliklarni baholash usullari. Toshkent moliya instituti ilmiy jurnali, №2.
5. Mamarasulova, G.A. (2022). Yashil iqtisodiyot sharoitida sug'urta faoliyatini rivojlantirish masalalari. O'zbekiston moliyasi, №4.
6. To'xtaev, H.H. (2021). Yashil iqtisodiyot va sug'urta tizimi integratsiyasi masalalari. Iqtisod va ta'lim, №1(84).
7. Natalya Vladimirovna Pershina "Ekologicheskoe straxovanie: teoriya i praktika" (monografiya) 2014. – 22 b.
8. <http://www.napp.uz> – O'zbekiston Respublikasi Istiqlolli loyihalar milliy agentligining rasmiy sayti ma'lumotlari.
9. A.R. Mamarahimov "Yashil iqtisodiyot va moliyaviy mexanizmlar".
10. Xolbaev A.Yu. O'zbekistonda informatsion risklarni sug'urtalash amaliyotini takomillashtirish istiqbollari. I.f.f.d. PhD ilmiy darajasini olish yozilgan dissertatsiya avtoreferati. Toshkent, 2025 yil.
11. Sobirov Baxtiyor Baxromovich "Yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda ekologik sug'urtaning o'mi", "Sug'urta bozorida ekologik tavakkalchiliklarni baholash va kamaytirish usullari" maqolalar.
12. Natalya Vladimirovna Pershina "Ekologicheskoe straxovanie: teoriya i praktika" (monografiya) 2014. – 22 b.